

O'ZBEKISTON SUD TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI SUDYA YORDAMCHILARI (AI-ASSISTANT) NI JORIY ETISH:HUQUQIY VA MA'MURIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18514643>

Jo'rayev Sherzodbek Komiljon o'g'li

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti 124-guruh talabasi

Annotatsiya

Mazkur ilmiy ish O'zbekiston Respublikasining sud-huquq tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari doirasida sun'iy intellekt texnologiyalaridan, xususan, sudya yordamchisi sifatida faoliyat yurituvchi AI-assistentlarni joriy etish masalalarini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda sud ishlarini yuritishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni, ularning sud faoliyati samaradorligini oshirishdagi ahamiyati hamda inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirish imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan.

KIRISH

XXI asrning uchinchi o'n yilligiga kelib, sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari insoniyat hayotining deyarli barcha sohalariga kirib bordi – ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, moliya, hatto sud hokimiyati ham bundan mustasno emas¹. Sud tizimining raqamlashtirilishi va ma'lumotlar oqimini avtomatlashtirish natijasida adolatli, tez va samarali sudlovni ta'minlash imkoniyatlari kengaymoqda. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu global jarayondan chetda qolmayapti. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda Prezidentning 2020-yil 28-apreldagi PF-6005-son Farmonida sud hokimiyati faoliyatini raqamlashtirish, elektron adliya tizimini keng joriy etish vazifalari belgilangan. Shu maqsadda "E-Sud", "Sud qarorlari banki" va "my.sud.uz" kabi axborot tizimlari ishlab chiqildi. 2025-yildan esa "Digital Court" konsepsiyasi asosida sun'iy intellekt elementlarini sud tizimiga integratsiya qilish rejalashtirilmoqda². Evropa Kengashining CEPEJ (2018) "European Ethical Charter on the Use of Artificial Intelligence in Judicial Systems" hujjatida AI sudlarda faqat inson nazorati ostida ishlatilishi kerakligi belgilangan. O'zbekiston Oliy sudi huzurida Axborot-texnologiyalari markazi

¹ O'rinboyev K. U. «O'zbekiston sud tizimida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarini joriy etishning huquqiy va tashkiliy asoslari», *Ilmiy Tadqiqotlar va Ularning YeChIMlari JURNALI*, Volume 7, Issue 02, 2025.

² Mironshoh Abdimurodov, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida E-sud va boshqa axborot tizimlarining sud faoliyatida tatbiqi, *New Uzbekistan Journal of Academic Research*, 2025

tashkil etilgan bo'lib, unda AI yordamida ishlarni taqsimlash va sud statistikasini tahlil qilish modullari ishlab chiqilmoqda. Ammo huquqiy me'yorlar hali to'liq shakllanmagan, bu esa AI qarorlarining legitimligini ta'minlashda muammolar tug'diradi³. Shuningdek, tashkiliy tomondan xodimlarning malaka yetishmovchiligi, AI tizimlarining shaffof bo'lmasligi, sud avtonomiyasi va inson huquqlari kabi muammolar dolzarb bo'lib qolmoqda. Sud jarayonlarida AI yordamida dalillarni baholash yoki hukm loyihasini tayyorlash jarayoni etik va huquqiy xavf tug'dirishi mumkin.

NATIJALAR

O'zbekiston sud tizimida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tahlillar natijasida mamlakatda ushbu sohada normativ-huquqiy baza shakllanayotgan, lekin hali to'liq institutsional darajada faoliyat yuritmayotgan tizim mavjudligi aniqlandi. AI integratsiyasi uchun zarur bo'lgan tashkiliy infratuzilma, davlat siyosati va huquqiy mexanizmlar qisman ishlab chiqilgan, biroq ayrim sohalarda huquqiy bo'shliqlar saqlanib qolmoqda. Avvalo, huquqiy asoslar nuqtai nazaridan, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi (PF-6079, 2020-yil 5-oktabr) davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va sud hokimiyatida raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni milliy ustuvor yo'nalish sifatida belgilagan. Mazkur strategiya doirasida "E-Sud", "Sud qarorlari banki" va "my.sud.uz" portallari ishga tushirilgan. Ushbu tizimlar yordamida fuqarolar sud hujjatlarini onlayn tarzda olish, ariza yuborish, shuningdek, sud majlislari sanalarini kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu jarayonlar sud faoliyatida raqamli islohotlarning boshlang'ich bosqichini ifodalaydi va sun'iy intellekt joriy etilishi uchun zarur texnologik platformani yaratadi⁴. Normativ jihatdan esa, 2024-yil 12-yanvardagi PQ-23-son Prezident qarori "Sud tizimida axborot texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" nomli hujjat bilan yangi bosqichga o'tildi. Mazkur qaror Oliy sud huzurida "Axborot texnologiyalari markazi" ni tashkil etish, "Digital Court" konsepsiyasini ishlab chiqish va sinov tariqasida ayrim sudlarda AI modullarini joriy etish choralari belgiladi. Shu tariqa, 2024-yil oxiriga kelib, O'zbekiston sud tizimida birinchi marta sun'iy intellekt algoritmlarini sinovdan o'tkazishga qaratilgan institutsional mexanizm shakllandi. Amaliy tahlil shuni ko'rsatdiki, hozirda AI texnologiyalari O'zbekiston sud tizimida quyidagi yo'nalishlarda tatbiq etilmoqda: ishlarni avtomatik taqsimlash, hujjatlarni elektron

³ **Abdimurodov M., Ismoilov B.**

Sud tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning huquqiy muammolari. Huquq va raqamli texnologiyalar, 2023.

⁴ **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni** - "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida, PF-6079, 2020-yil 5-oktabr.

tarzda rasmiylashtirish, sud qarorlarini to'plash va tahlil qilish, statistika tizimini optimallashtirish va shikoyat arizalarini avtomatik qayd qilish. Masalan, Oliy sud tomonidan taqdim etilgan 2024-yilgi hisobotda ko'rsatilishicha, 150 mingdan ortiq sud hujjati raqamli tarzda qayta ishlangan va ularning 68 foizi AI yordamida tasniflangan. Biroq, mavjud tizimda AI vositalarining huquqiy maqomi aniq belgilanmagan. Shuningdek, O'zbekiston qonunchiligida "AI sud qarori" tushunchasi hali huquqiy kategoriya sifatida kiritilmagan. Tahlil davomida aniqlangan muhim natijalardan biri – AI tizimlari va shaxsiy ma'lumotlar o'rtasidagi huquqiy ziddiyatdir. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-547, 2019-yil 2-iyul) fuqarolarning ma'lumotlarini qayta ishlashda ularning roziligini talab etadi. Ammo AI modellarini o'qitish jarayonida sud qarorlaridagi yoki jinoyat ishidagi shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish ehtimoli mavjud. Bu esa "ma'lumotlarni anonimlashtirish" mexanizmini joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Dunyo tajribasida, xususan Estoniyada, sud ma'lumotlari AI modellariga kiritilishidan avval avtomatik tarzda shaxsiy identifikatsiya elementlaridan tozalanadi. Tashkiliy jihatdan, O'zbekiston sud tizimida AI integratsiyasi uchun ma'lumotlar bazalarining uzviyligini ta'minlash zarur. Hozirda "Davlat xizmatlari portali", "E-Sud" va "Yagona identifikatsiya tizimi (OneID)" o'rtasida to'liq integratsiya mavjud emas⁵. Shu sababli AI modellarining samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan yagona ma'lumot muhitini yaratish (unified data lake) talab etiladi. Mazkur holat "Digital Court" konsepsiyasida alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Tahlil shuningdek, AI integratsiyasi jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy xavflarni ham aniqladi. Bular qatoriga algoritmik tarfakashlik (bias), ma'lumotlar xavfsizligi, etik muammolar, sud mustaqilligi va inson huquqlariga ta'sir kabilar kiradi. OECD (2021) tomonidan ta'kidlanganidek, AI qarorlarining shaffofligi va javobgarligini ta'minlamaslik fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini pasaytiradi⁶. O'zbekiston uchun bu ayniqsa dolzarb, chunki mamlakat sud tizimi islohotlar jarayonida fuqarolik nazoratiga asoslangan ochiqlik tamoyillarini mustahkamlash yo'lida harakat qilmoqda. Sud tizimida AI joriy etilish natijasida hujjat aylanishining tezligi sezilarli darajada oshgan. 2023-yilda sudlar o'rtacha ishni ko'rib chiqish muddatini 45 kundan 32 kungacha qisqartirishga muvaffaq bo'lishgan, 2024-yilda esa raqamli vositalar qo'llanilgan ishlarda bu ko'rsatkich 26 kungacha tushgan. Bu raqamlar AI texnologiyalari sud tizimining samaradorligini oshirishga real ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi – "E-Sud", "Sud qarorlari banki" va "Davlat xizmatlari portali" integratsiyasi bo'yicha axborot.

⁶ OECD (2021) – OECD AI Principles: Recommendation of the Council on Artificial Intelligence, bu hujjatda algoritmik tarfakashlik (bias), ma'lumot xavfsizligi, etik tamoyillar va shaffoflik bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Natijalar, shuningdek, AI texnologiyalarining fuqarolarning sud tizimiga kirish imkoniyatiga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. "my.sud.uz" platformasi orqali arizalarning 41 foizi onlayn topshirilgan, bu esa pandemiyadan keyingi davrda sud jarayonlarining uzluksizligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan.

MUHOKAMA

O'zbekiston sud tizimida sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarini joriy etish masalasi nafaqat texnologik modernizatsiya, balki huquqiy va institutsional yangilanish jarayonidir. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda bu boradagi dastlabki yutuqlar mavjud bo'lsa-da, ularning huquqiy asoslari va tashkiliy mexanizmlari hali ham rivojlanish bosqichida. Muhokama jarayonida bu yutuqlar va mavjud muammolar o'zaro bog'liq holatda tahlil qilinadi, shuningdek, xalqaro tajriba bilan qiyoslanadi. Avvalo, sun'iy intellekt texnologiyalarining sud tizimida joriy etilishi O'zbekistonning sud islohotlari konsepsiyasida belgilangan asosiy yo'nalishlardan biridir. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida "sud tizimini inson omilidan xoli, xolis va raqamli boshqaruvga asoslangan tizimga aylantirish zarur"ligini alohida ta'kidlagan edi⁷. Bu siyosiy yondashuv sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha milliy strategiyani shakllantirishga zamin yaratdi. AI tizimlarining yana bir nozik jihati – shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi masalasidir. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun O'zbekistonda ma'lumotlar himoyasini belgilasada, AI yordamida ularni qayta ishlash va o'qitish jarayonida anonimlashtirish mexanizmlari yetarlicha huquqiy tartibga solinmagan. Estoniya tajribasida, masalan, AI sud tizimlarida ishlatiladigan barcha ma'lumotlar avtomatik tarzda identifikatsiyadan chiqariladi va shaxsga bog'lanmagan holatga keltiriladi. O'zbekiston uchun ham shunga o'xshash "Data Protection by Design" tamoyilini qonun darajasida joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Muhokama davomida shuningdek, O'zbekistonning xalqaro hamkorlikdagi ishtiroki alohida e'tiborga loyiq. BMTning "Artificial Intelligence for the Rule of Law" tashabbusi doirasida O'zbekiston uchun AI etika ko'rsatmalarini ishlab chiqish taklifi ilgari surilgan. 2024-yil hisobotlariga ko'ra, AI yordamida yuritilgan ishlarda hujjatlarni tayyorlash va tahlil qilish uchun sarflanadigan vaqt 30 foizga qisqargan, sud qarorlarining e'lon qilinishi va ma'lumotlarni almashish tezligi esa ikki baravar oshgan. Biroq bu yutuqlar AI tizimlarining ishonchliligi va shaffofligini kafolatlanmaguncha, doimiy natija bermaydi. O'zbekiston sud tizimi AI integratsiyasi bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinni egallamoqda. Qozog'iston va Qirg'izistonda AI joriy etish

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasi.

faqat tajriba loyihalari doirasida amalga oshirilayotgan bo'lsa, O'zbekiston qonuniy asosga ega yagona davlat sifatida ajralib turadi⁸.

Xorijiy tajriba asosida sud tizimida sun'iy intellekt (AI-assistent)dan foydalanishning nazariy asoslari va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari

1. Sud tizimida sun'iy intellektdan foydalanish tushunchasi

Sud tizimida sun'iy intellekt asosidagi sudya yordamchilari (AI-assistentlar) – bu sud jarayonlarini avtomatlashtirish, huquqiy tahlilni tezlashtirish va sud qarorlarini tayyorlashda sudyaga axborot-texnik ko'mak beruvchi raqamli tizimlardir. Nazariy jihatdan, AI-assistentlar qaror qabul qiluvchi subyekt emas, balki maslahat beruvchi va tahliliy yordamchi mexanizm sifatida talqin etiladi⁹.

Xorijiy huquqiy doktrinada AI sud tizimida "decision support system" (qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi tizim) sifatida e'tirof etiladi.

2. Sud tizimida AI'dan foydalanishning asosiy nazariy tamoyillari

Xorijiy tajribaga tayangan holda, sud tizimida AI qo'llash quyidagi nazariy tamoyillarga asoslanadi:

- **Sud mustaqilligi tamoyili** – AI sudya o'rnini egallamasligi kerak;
- **Inson nazorati tamoyili** – barcha yakuniy qarorlar inson tomonidan qabul qilinadi;
- **Xolislik va adolatlilik tamoyili** – algoritmlar tarafkashlikdan xoli bo'lishi zarur;
- **Shaffoflik tamoyili** – AI faoliyati tushunarli va izohlanadigan bo'lishi lozim;
- **Ma'lumotlar xavfsizligi tamoyili** – shaxsiy va maxfiy ma'lumotlar himoyalangan bo'lishi shart.

3. Xorijiy tajribani O'zbekiston sud tizimida qo'llashning nazariy asoslari

Nazariy nuqtayi nazardan, O'zbekiston sud tizimida AI-assistentlarni joriy etish:

- sud ishlarini yuritish samaradorligini oshiradi;
- sudyalar ish yukini kamaytiradi;
- sud qarorlarining huquqiy asoslanganligini kuchaytiradi.

Bunda AI sudyani almashtirmasdan, raqamli yordamchi institut sifatida shakllanishi lozim.

4. O'zbekistonda AI-assistentlarni joriy etishning nazariy cheklavlari

Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki:

⁸ "Sud tizimida axborot texnologiyalarini rivojlantirish to'g'risida"gi PQ-23 qaror (2024-yil 12-yanvar)

⁹ **Burri, M. (2021).** Artificial Intelligence in Judicial Systems: A Comparative Analysis. Journal of Law and Technology.

- AI huquq subyekti sifatida e'tirof etilmaydi;
- AI tomonidan ishlab chiqilgan xulosalar majburiy kuchga ega bo'la olmaydi;
- noto'g'ri tavsiyalar uchun javobgarlik masalasi doimo inson subyektiga tegishli bo'lib qoladi.

Shu sababli, AI-assistentlardan foydalanish qat'iy huquqiy va axloqiy me'yorlar bilan tartibga solinishi zarur¹⁰.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O'zbekiston sud tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish so'nggi yillarda mamlakatdagi eng muhim raqamli islohotlardan biriga aylandi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, AI texnologiyalarining huquqiy maqomini belgilash, sud faoliyatida ularni qo'llashning tashkiliy asoslarini yaratish hamda xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish jarayoni boshlangan va asta-sekin tizimli tus olmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon texnologik, huquqiy va institutsional jihatdan murakkab bo'lib, hali ko'plab nazariy va amaliy masalalarni hal qilishni talab etadi. Sun'iy intellektni sud tizimida tatbiq etishning asosiy ijobiy tomoni – adolatli sudlovning tezkorligi, shaffofligi va fuqarolarga qulayligi oshishidir. “E-Sud”, “my.sud.uz” kabi tizimlar faoliyatining kengayish natijasida fuqarolarning sud xizmatlariga kirish imkoniyati sezilarli ravishda yaxshilandi¹¹. 2024-yilda Oliy sud ma'lumotlariga ko'ra, AI yordamida qayta ishlangan hujjatlar hajmi 150 mingdan oshgan, bu esa ma'muriy yuklamaning kamayishiga va sudylar e'tiborining ish mazmuniga qaratilishiga imkon bergan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi va PQ-23-son qaror ushbu yo'nalishning asosiy siyosiy-ijtimoiy poydevorini yaratdi¹². Biroq, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, AI texnologiyalarini huquqiy jihatdan to'liq integratsiya qilish uchun qo'shimcha mexanizmlar talab etiladi. Tadqiqot davomida aniqlangan muhim natijalardan biri shuki, O'zbekiston AI integratsiyasi bo'yicha Markaziy Osiyoda ilg'or davlat sifatida ajralib turadi. Qozog'iston va Qirg'izistonda AI texnologiyalari faqat sud ma'muriyati jarayonlarida sinov tariqasida qo'llanilayotgan bo'lsa, O'zbekiston uni normativ jihatdan tartibga solgan birinchi davlat bo'ldi. Shu bois, mamlakat o'z tajribasini mintaqaviy darajada eksport qilishi, xalqaro hamkorlik orqali AI etikasi va huquqiy mexanizmlarini shakllantirishda yetakchi rol o'ynashi mumkin. OECD AI Principles

¹⁰ Council of Europe, CEPEJ (2018). *European Ethical Charter on the Use of Artificial Intelligence in Judicial Systems*.

¹¹ Oliy sud axborot-texnologiyalari markazi (2024-2025). *E-Sud, my.sud.uz va Sud qarorlari banki tizimlari bo'yicha statistik ma'lumotlar va tahliliy hisobotlar*. Tashkent: Oliy sud nashriyoti.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi, PF-6079, 2020-yil 5-oktabr.

(2021) shuni ta'kidlaydiki, har qanday AI qarori inson tomonidan nazorat qilinmasdan qabul qilinmasligi kerak¹³. O'zbekiston ham bu tamoyilni qonun darajasida qabul qilgan, ammo uni amalda joriy etish uchun mustaqil "AI etikkengashi" tashkil etish zarur. Ushbu kengash AI tizimlarining ishlash algoritmlarini baholash, etik me'yorlarga muvofiqligini tekshirish va sud mustaqilligiga ta'sirini tahlil qilish vakolatiga ega bo'lishi kerak. Sud tizimida AI joriy etilishi bilan bog'liq eng katta masalalardan biri – shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-547, 2019-yil 2-iyul) asosida AI modellarining o'qitilish jarayonida ishlatiladigan ma'lumotlar anonimlashtirilishi lozim, ammo bu jarayon amalda to'liq tartibga solinmagan¹⁴. Estoniya va Finlyandiya tajribasida bu masala "data protection by design" tamoyili asosida hal etilgan: AI tizimlari dastlabdan maxfiylik mexanizmlari bilan jihozlanadi. Shu asosda, O'zbekiston qonunchiligida ham AI ishlab chiquvchilar uchun "ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha texnik talablar"ni belgilovchi maxsus me'yoriy hujjat ishlab chiqilishi zarur. Shuningdek, AI sud tizimiga kiritilishi bilan sud mustaqilligiga tahdid tug'ilish xavfi ham mavjud. Agar AI algoritmlari markazlashgan davlat serverida joylashtirilsa, ularning ishlash jarayonida siyosiy yoki tashqi aralashuv ehtimoli paydo bo'ladi. Shu sababli, AI tizimlari "distributed computing" tamoyili asosida – ya'ni har bir sud darajasida mustaqil serverlarda ishlaydigan shaklda tashkil etilishi lozim¹⁵. Bu, bir tomondan, sudlar mustaqilligini himoya qiladi, ikkinchi tomondan, kiberxavfsizlikni kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Supreme Court of Uzbekistan, Digitalization Report (2024).
2. Presidential Decree No. PF-6079 of Oct. 5, 2020, Digital Uzbekistan-2030 Strategy, Lex.uz.
3. Presidential Decree No. PQ 23 of Jan. 12, 2024, On the Development of ICT in the Judicial System, Lex.uz.
4. Law of the Republic of Uzbekistan On Artificial Intelligence (Aug. 12, 2025), Lex.uz.
5. Oliy sud akademiyasi. "AI texnologiyalarini sud amaliyotida qo'llash asoslari" o'quv moduli, 2024–2025-yil.

¹³ OECD (2021). "OECD AI Principles" — Sun'iy intellektni mas'uliyatli va shaffof qo'llash bo'yicha xalqaro tavsiyalar to'plami.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida" (O'RQ-547, 2019-yil 2-iyul).

¹⁵ Amirqulov, Ch. J. (2025). Sud tizimida sun'iy intellekt integratsiyasi va xavfsizlik masalalari. "Adliya va axborot texnologiyalari" jurnali, 3(12), 45–53.

6. **OECD (2021). "OECD AI Principles"** – Sun'iy intellektni mas'uliyatli va shaffof qo'llash bo'yicha xalqaro tavsiyalar to'plami.

7. **Oliy sud axborot-texnologiyalari markazi (2024-2025).** *E-Sud, my.sud.uz va Sud qarorlari banki tizimlari bo'yicha statistik ma'lumotlar va tahliliy hisobotlar.* Tashkent: Oliy sud nashriyoti.